

TADBIRKORLIK MUHITIDA SOLIQ NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Xurramov Azizbek Muxiddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi

“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19815375>

Annotatsiya: Tadbirkorlik muhitida soliq nazorati va soliq ma'muriyatchiligi tizimini rivojlantirishning nazariy, institutsional va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqotda soliq nazoratining fiskal funksiyasi bilan bir qatorda uning tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri, raqamli xizmatlarni kengaytirish, soliq to'lovchilar bilan hamkorlik modelini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. O'zbekistonda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy statistik ma'lumotlar asosida soliq nazorati tizimining amaldagi holati baholangan. Tadqiqot natijasida soliq nazorati va ma'muriyatchiligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida raqamlashtirish, differensial yondashuv, oldindan shakllantiriladigan hisobotlar, elektron ma'lumotlar almashinuvi, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: soliq nazorati, soliq ma'muriyatchiligi, tadbirkorlik muhiti, raqamlashtirish, tavakkalchilikka asoslangan nazorat, elektron soliq xizmatlari, soliq xavfi, soliq hisobotlari, fiskal boshqaruv, tadbirkorlik subyektlari.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlarining erkin va barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning soliqqa oid majburiyatlarni bajarish jarayonidagi ma'muriy sharoitlarga bog'liq. Soliq tizimining samaradorligi endilikda faqat soliqlar stavkasi yoki imtiyozlar miqdori bilan emas, balki nazorat va ma'muriyatchilik jarayonlarining soddaligi, shaffofligi, tezkorligi va prognoz qilinuvchanligi bilan ham baholanadi. Shu ma'noda, zamonaviy tadbirkorlik muhitida soliq nazorati faqat jazolash instrumenti emas, balki iqtisodiy intizomni ta'minlovchi, ixtiyoriy rioya etishni rag'batlantiruvchi va legallashtiruvchi kuchaytiruvchi boshqaruv mexanizmiga aylanmoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 16.02.2026 yildagi PF-21-son farmonida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan soliq islohotlarini izchil davom ettirish hamda soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish maqsadi bevosita qayd etilgan. Mazkur yondashuv soliq nazoratining iqtisodiy rivojlanish bilan qarama-qarshi emas, balki uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi zarurligini anglatadi.

Mavzuning dolzarbligi rasmiy statistika bilan ham tasdiqlanadi. 2025-yil yanvar-dekabr yakunlariga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat 923 514,6 mlrd so'mni tashkil etgan va uning YAIMdagi ulushi 52,2 foizga teng bo'lgan. Ayrim tarmoqlarda, xususan qishloq xo'jaligida 93,1 foiz, qurilishda 75,6 foiz va xizmatlar sohasida 47,2 foizlik ulush qayd etilgani tadbirkorlik sektorining iqtisodiyotdagi o'rni naqadar katta ekanini ko'rsatadi. Demak, soliq nazorati va ma'muriyatchilik tizimidagi har qanday islohotlar makroiqtisodiy natijalarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotda bir nechta ilmiy usullardan kompleks foydalanildi. Birinchi navbatda, me'yoriy-huquqiy tahlil usuli qo'llanib, O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi, soliq xavfini

boshqarish, elektron soliq xizmatlari va tadbirkorlik subyektlari uchun qulaylik yaratishga oid asosiy normativ hujjatlar o'rganildi. Bunda 2020-yildagi soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqidagi hukumat qarori, 2021-yildagi soliq xavfini boshqarish va soliq tekshiruvlarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom hamda soliq hisobotlarini elektron ma'lumotlar asosida shakllantirishga doir qoidalar asosiy manba sifatida ko'rib chiqildi.

Ikkinchidan, statistik umumlashtirish va qiyosiy tahlil usullari yordamida tadbirkorlik sektorining iqtisodiyotdagi ulushi va bu sektor uchun soliq boshqaruvining ahamiyati tahlil qilindi. Bu yondashuv soliq nazorati va ma'muriyatchiligidagi o'zgarishlar tadbirkorlik muhitiga qanday keng ko'lamda ta'sir qilishi mumkinligini baholash imkonini berdi.

Uchinchidan, tizimli yondashuv asosida soliq ma'muriyatchiligi bir necha tarkibiy bo'g'inlarga ajratildi: ro'yxatdan o'tish, ma'lumotlarni yig'ish, hisobot topshirish, nazorat, tekshiruv, xavfni baholash, tahliliy monitoring, elektron xizmat ko'rsatish va maslahat berish. Mazkur tarkibiy yondashuv asosida har bir bo'g'indagi muammolar va rivojlantirish imkoniyatlari alohida ko'rib chiqildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati milliy iqtisodiyotning tayanch institutlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadbirkorlik subyektlarining barqaror ishlashi, investitsion faolligi, yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati hamda raqobatbardoshligi ko'p jihatdan davlat tomonidan shakllantirilgan institutsional muhit sifati bilan belgilanadi. Mazkur muhitning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri soliq ma'muriyatchiligi hisoblanadi. Chunki soliq ma'muriyatchiligi faqat soliqlarni hisoblash, undirish va nazorat qilish bilan cheklanib qolmay, balki tadbirkorlik faoliyatini yuritish xarajatlari, rasmiylashtirish jarayonlari, hisobot topshirish qulayligi hamda davlat organlari bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlar sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish zarurati, avvalo, iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektor ulushini kengaytirish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda soliq ma'muriyatchiligi nafaqat fiskal manfaatlarni ta'minlashi, balki iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va soliqqa ixtiyoriy rioya etish darajasini oshirishga ham xizmat qilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, soliq ma'muriyatchiligini isloh qilishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini chuqur o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan alohida dolzarblik kasb etadi.

Soliq ma'muriyatchiligining tashkiliy asoslari, eng avvalo, soliq organlari faoliyatining samarali tashkil etilishi, vakolatlar doirasining aniq belgilanishi, boshqaruv jarayonlarining shaffofligi hamda xizmat ko'rsatish tizimining samaradorligi bilan tavsiflanadi. Tadbirkorlik subyektlari uchun soliq organlari faoliyatida ochiqlik, tezkorlik va tushunarlilik ta'minlanmagan sharoitda soliq tizimiga nisbatan ishonch darajasi pasayadi. Buning oqibatida norasmiy iqtisodiy faoliyatga moyillik ortishi, soliq intizomining susayishi va ma'muriy xarajatlarning ko'payishi kuzatilishi mumkin. Shu bois soliq organlari faoliyatini faqat markazlashgan nazorat instituti sifatida emas, balki xizmat ko'rsatuvchi, maslahat beruvchi va iqtisodiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlovchi tizim sifatida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur jarayonda iqtisodiy omillar ham alohida o'rin tutadi. Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ma'muriy xarajatlarni optimallashtirish, soliq bazasini kengaytirish va byudjet tushumlarining barqarorligini ta'minlash bilan chambarchas

bog'liqdir. Tadbirkorlik subyektlari uchun hisobotlarni topshirish, soliq majburiyatlarini bajarish hamda tekshiruvlar bilan bog'liq vaqt va moliyaviy xarajatlarning qisqarishi ularning ishlab chiqarish va investitsiya faoliyatiga ko'proq resurs yo'naltirishiga imkon beradi. Demak, soliq ma'muriyatchiligidagi har qanday islohot fiskal natijalar bilan bir qatorda xo'jalik yurituvchi subyektlar xarajatlariga, ularning bozordagi xatti-harakatlariga va umumiy iqtisodiy faollikka ko'rsatadigan ta'siri nuqtai nazaridan ham baholanishi zarur.

Tadbirkorlik muhitida soliq ma'muriyatchiligini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlaridan biri raqamlashtirish hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar asosida soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish, soliq to'lovlarini masofadan amalga oshirish, avtomatlashtirilgan tekshiruv mexanizmlarini joriy etish va real vaqt rejimida axborot almashinuvi tizimini shakllantirish ma'muriy jarayonlarni sezilarli darajada soddalashtiradi. Shu bilan birga, inson omili ta'sirining kamayishi korrupsion holatlarning oldini olish, subyektiv qarorlar ulushini qisqartirish va nazoratning aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamlashtirishning yana bir muhim afzalligi shundaki, u ma'lumotlar bazalarining integratsiyasi orqali soliq xavflarini tezkor aniqlash va ularni tahlil qilish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Biroq soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishni faqat texnik vositalar bilan cheklash yetarli emas. Ushbu yo'nalishda institutsional va tashkiliy jihatdan kompleks yondashuv talab etiladi. Xususan, soliq qonunchiligining barqarorligi, normalarning sodda va tushunarli shaklda bayon etilishi, izoh va uslubiy qo'llanmalarining amaliyotda yagona tarzda qo'llanishi tadbirkorlik muhiti uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Agar soliq normalari murakkab, tez-tez o'zgaruvchan yoki turlicha talqin qilinishiga yo'l qo'yadigan bo'lsa, tadbirkorlik subyektlari huquqiy noaniqlik sharoitida faoliyat yuritishga majbur bo'ladi. Bunday vaziyat esa investitsion xavflarni oshiradi va iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli soliq ma'muriyatchiligini isloh qilishda xavfga asoslangan nazorat tizimini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv barcha soliq to'lovchilarni bir xil darajada tekshirish amaliyotidan voz kechib, xavf darajasi yuqori bo'lgan subyektlarga nisbatan maqsadli nazorat choralari qo'llashni nazarda tutadi. Natijada halol faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun ortiqcha tekshiruvlar va ma'muriy bosim kamayadi, soliq organlarining resurslari esa yanada samarali va maqsadli yo'naltiriladi. Bu esa, bir tomondan, nazorat samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning yana bir ustuvor yo'nalishi soliq madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liqdir. Soliq tizimining samaradorligi faqat majburiy undirish mexanizmlariga asoslanmaydi. Aksincha, soliq to'lovchilarning huquqiy ongini rivojlantirish, ularga maslahat va tushuntirish xizmatlarini kengaytirish, soliq majburiyatlarini bajarishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini chuqur anglatish orqali ixtiyoriy rioya darajasini oshirish mumkin. Tadbirkorlik subyektlari davlat bilan munosabatlarda o'zini nazorat ostidagi obyekt sifatida emas, balki teng huquqli iqtisodiy hamkor sifatida his etgan taqdirdagina soliq intizomi yanada mustahkamlanadi.

Tashkiliy-iqtisodiy nuqtai nazardan yondashilganda, soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish davlat va biznes manfaatlari o'rtasida oqilona muvozanatni ta'minlashni talab qiladi. Davlat uchun ustuvor maqsad byudjet tushumlarining barqarorligini kafolatlashdan iborat bo'lsa, tadbirkorlik subyektlari uchun asosiy masala soliq yukining o'zidan ko'ra uni boshqarish bilan

bog'liq ma'muriy xarajatlarning maqbul darajada bo'lishidir. Shu bois samarali soliq ma'muriyatchiligi tizimi soliqlarni yig'ish ko'rsatkichlarini yaxshilash bilan birga biznes yuritish qulayligini ham oshirishi zarur. Aynan mana shu ikki maqsadning uyg'unligi soliq islohotlarining haqiqiy natijadorligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni legallashtirish, moliyaviy operatsiyalar shaffofligini kuchaytirish va soliq bazasini kengaytirish maqsadida naqdsiz hisob-kitoblarni rag'batlantirishga qaratilgan yangi institutsional mexanizmlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, 2025-yil 10-dekabrda qabul qilingan PF-246-son Farmon mamlakatda savdo, xizmat ko'rsatish hamda ayrim yuqori qiymatli bitimlarni amalga oshirish tartibida muhim institutsional o'zgarishlarni boshlab berdi. Mazkur Farmonga muvofiq, 2026-yil 1-apreldan boshlab ayrim tovarlar va xizmatlar bo'yicha to'lovlarni faqat bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirish tartibi belgilandi.

Shunday qilib, tadbirkorlik muhitida soliq nazorati va ma'muriyatchilik tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida raqamlashtirishni chuqurlashtirish, integratsiyalashgan ma'lumotlar bazasini yaratish, xavfga asoslangan nazoratni takomillashtirish, servis modelini kengaytirish va toifalashtirilgan ma'muriy boshqaruvni joriy etish tavsiya etiladi. Mazkur chora-tadbirlar tadbirkorlik faolligini qo'llab-quvvatlash, ixtiyoriy soliqqa rioya darajasini oshirish va davlat fiskal manfaatlarini muvozanatli ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida: PF-246-son Farmon, 2025-yil 10-dekabr.
2. Найденова Татьяна Анатольевна, & Новокшонова Елена Николаевна (2022). Налоговая культура как необходимое условие обеспечения наполняемости бюджетов. Вестник Бурятского государственного университета. Экономика и менеджмент, (1), 34-45.
3. Тўлаков, У. (2024). Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилигини рақамлаштиришнинг хориж тажрибаси. Рақамли иқтисодиёт ва ахборот технологиялари, 2(3), 10-22.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 30-октябрдаги "Яширин иқтисодиётни қисқартириш ва солиқ органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-6098-сон Фармони.